ISNN:2181-1296



SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

САМАРКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ ИМЕНИ ШАРОФА РАШИДОВА

SAMARKAND STATE UNIVERSITY NAMED AFTER SHAROF RASHIDOV

ILMIY AXBOROTNOMA

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК
SCIENTIFIC JOURNAL

GUMANITAR FANLAR SERIYASI

№ 2/2 (138)
2023

ISSN 2181-1296

ILMIY AXBOROTNOMA

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК SCIENTIFIC JOURNAL

2023-yil, 2-son 2-seriya (138) GUMANITAR FANLAR SERIYASI

Tarix, Falsafa, Filologiya, Huquqshunoslik, Pedagogika, O‘qitish metodikasi, Psixologiya, Sotsiologiya, Siyosiy fanlar

Samarqand viloyat matbuot boshqarmasida ro‘yxatdan o‘tish tartibi 09-25.
Jurnal 1999-yildan chop qilina boshlagan va OAK ro‘yxatiga kiritilgan.

BOSH MUHARRIR **R. I. XALMURADOV, t.f.d., professor**
BOSH MUHARRIR O‘RINBOSARLARI: **H.A. XUSHVAQTOV, f-m.f.d., dotsent A. M. NASIMOV, t.f.d., professor**

TAHRIRIYAT KENGASHI:

S. S. G‘ULOMOV	- O‘zFA akademigi
M.Q. MUXIDDINOV	- fil.f.d., professor (SamDU)
SH.A.HASANOV	- fil.f.d., professor (SamDU)
S.A.KARIMOV	- fil.f.d., professor (SamDU)
N. Sh. SHODIEV	- ped.f.d., professor (SamDU)
M.X.LUTFULLAYEV	- ped.f.d., professor (SamDU)
HIROAKI HUZIIE	- Osaka universiteti professori (Yaponiya)
A.B.PARDAYEV	- fil.f.d., professor (SamDU)
SH.Y.ZIYODOV	- fil.f.d., dotsent (Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi)
J.Y.YAXSHILIKOV	- f.f.d., professor (SamDU)
SH.SH.NEGMATOVA	- f.f.d., professor (SamDU)
N.U.ARABOV	- i.f.d., professor (SamDU)
B.E.ERGASHEV	- t. f. d., professor (SamDU)
B.S.G‘OYIBOV	- t.f.d., (SamDU)
D.Q.USMONOVA	- i.f.n., dotsent (SamDU)
F.SH.RASHIDOVA	- t.f.f.d., dotsent (SamDU)
O.S.YUSUPOVA	- f.f.n., dotsent (SamDU)
O.S.QODIROV	- p.f.n., dotsent (SamDU)
S.I.MUXIDDINOV	- t.f.f.d., (SamDU)

Obuna indeksi – yakka tartibdagi obunachilar uchun **- 5583,**
tashkilot, korxonalar uchun **- 5584**

MUNDARIJA / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENTS

MUNDARIJA	
Atayeva G.R. *O‘smirlar mehnat faoliyatini oila va maktabda o‘zaro muvofiqlashtirishning psixologik samaradorligi……*	4-8
Yakubova M. *Nemis sayohatchisi xans-xermann fon shvaynitsning esdaliklaridan samarqand tarixiga oid ayrim lavhalar……*	9-14
Marufov E.U. *Talabalarning ingliz tili fonetik kompetensiyasini rivojlantirishdagi qiyinchiliklar……*	15-20
Aliyev O.O. *O‘zbekistonda axborot xavfsizligi siyosatining huquqiy asoslarini shakllanishi va rivojlanishi*	21-29
Mirzayev R.I., Ibodullayev S.R. *Korrupsiya va uning namoyon bo’lish shakllari……*	30-34
Rahimova G., Kiyamova S. *Umumta’lim maktablarida o‘quvchilarga Alisher Navoiy hayoti va ijodiini o‘rgatishda “Muammoli ta’lim” metodidan foydalanishning ahamiyati……*	35-42
Abdullayeva G.R. *Boshlang‘ich sinf tabiatshunoslik darslarini adekvat modellashtirish tizimini takomillashtirish*	43-47
Ochilova G.U. *Some cases of transmission of kinship terms in uzbek and english……*	48-52
Кадымова Д.Р., Рахмонкулова Ш.О. *Особенности реализация мотива сна в русской и зарубежной литературы (На примере произведений эпохи античности и средневековья, А.С. Пушкина «Евгения Онегина», И. А. «Обломова» Гончарова И «Преступления и наказания» Ф. М. Достоевского)……*	53-60
Radjabova D.N. *Rossiya sharqshunosligi ilmiy maktabi va o’rta osiyo tarixi masalalarining o’rganilishi……*	61-65
Мамасолиев И.Ф., Усманова Н.К. *Оригинальность баллад в.а. жуковского в русской словесности……*	66-71
Xayriyev I. *Aql, hissiyot va iroda integratsiyasi……*	72-76
Kenjayeva M.A. *Ona tili fanini o`qitishda tayanch kompetensiyalarni rivojlantirishda ta’lim exnologiyalardan foydalanish……*	77-81
Kuldashev M., Saidov U. *Jamoat xavfsizligini ta’minlashda yo‘l-transport hodisalarini oldini olishning o‘rni……*	82-86
Uzoqov M.F. *Attraktiv munosabatlarning o‘rni va pedagogik taxlili hamda uni hozirgi bosqichda maktabgacha ta’lim tizimida qo‘llash xususiyatlari……*	87-91
Xasanova M.N. *Elektron platforma vositasida muhandislik grafikasi fanini o‘qitishda talabalarning grafik ishlari sifatini rivojlantirishning pedogogik tavsifi……*	92-96
Аллаярова Н.Я. *Роль образовательных компетенций в развитии гендерно-равноправного мышления учащихся……*	97-101

Негматова Н.Н. *Принцип учета особенностей родного языка учащихся при обучении русскому языку в полиэтнической среде, методы и их классификация*……	102-106
Панжиева Н.Н. *Роль и значение развития навыков критического мышления у будущих учителей информатики* ……	107-116
Усманова Н.К., Сайфиддинова М. *«Мир детства» в философско-художественном и идейном воплощении в творчестве А.Платонова*……	117-122
Turniyazova R.B. *Emotional causation*……	123-128
F.F.Xatamov *Huquqning regulyativ funksiyasi va shaxs mas'ulligi*……	129-132
Xashimov Sh.J. *Milliy turizm va o'zbekistonning xalqaro imidji yuksalishining ijtimoiy-falsafiy masalalari*…….	133-137
Xushmurodova Sh.Sh. *Impact of bilingualism on third language acquisition and bilingual teaching*……	138-146
Mustafayeva M.SH. *Aleksitimiya fenomeni va uning namoyon bo'lishining psixologik xususiyatlari*……	147-151
Кадымова Д.Р., Ибрагимова Э.О. *Роль женщины и ее и судьба в произведении Л.Н.Толстого «анна каренина» и «госпожа бовари» .Флобера*……	152-158
Xoliqulov A.Y. *Ilk o'rta asrlar sug'dda bozorlar taraqqiyoti*……	159-163
Azizkulov A., To'g'izov N. *Boburiylar saltanatida ta'lim tizimi*……	164-168
Baysariyeva Ch.U. *Elektron ta'lim resurslari (etr) yordamida talabalar mustaqil ta'limini tashkil etish usullari, shakllari va vositalari*……	169-175
Amonturdiyeva Sh.R. *Diniy matnlarda mustaqil so'z turkumlarining ifodalanishi*……	176-179
Mustafayev Sh.N. *O'zbekiston oliy ta'lim tizimini modernizatsiyalashning artpedagogik asoslari*……	180-184
Rustamova Sh.Sh. *Investigating communicative competence as a vital of pedagogical category*……	185-189
Jumanov Sh. *Ijodiy-madaniy masalalar bo'yicha targ'ibotchi faoliyatining funksional pedagogik tahlili*.....	190-194
Tuxtayeva Sh.M. *Bo'lg'usi boshlang'ich sinf o'qituvchilariga matematika darslarida integratsiyalashgan ta'limni tashkillashtirish haqida*.....	195-200
Mualliflarga	

UO‘K:9(575) **DOI: https://doi.org/10.59251/2181-1296.2023.v2.138.2.2050**

ROSSIYA SHARQSHUNOSLIGI ILMIY MAKTABI VA O‘RTA OSIYO TARIXI MASALALARINING O‘RGANILISHI

D.N.Radjabova
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

Annotatsiya. Markaziy Osiyoni ilmiy tadqiq etish sharqshunoslikda chuqur ildiz otgan. Ilm-fan va ta’lim muassasalari tizimi, eng boy sharq qo‘lyozmalari, kitoblari, moddiy madaniyati ob’yektlari to‘plamlari sharqshunoslar tadqiqotlari uchun muhim manba bo‘lib xizmat qildi. O‘z asarlari va ijtimoiy-ilmiy faoliyati bilan O‘rta Osiyo, xususan, O‘zbekiston xalqlari ilm-fan va madaniyatini o‘rganish tarixiga ma’lum hissa qo‘shgan rus sharqshunosligining ana shunday vakillaridan biri Petr Ivanovich Lerxdir. U turli xalqlarning tillari va shevalari, qadimgi davr arxeologiyasi yoki sharq numizmatikasi ni chuqur o‘rgangan mutaxassis edi. Maqolada Rossiya Fanlar akademiyasining arxiv ilmiy muassasalarining keng manbalaridan, xususan, P.I. Lerxning Sankt-Peterburgdagi Sharq tillari instituti ilmiy arxividagi shaxsiy fondi materiallaridan foydalanilgan.

Kalit so'zlar: sharqshunoslik, Markaziy Osiyo, o'rganish, ilmiy tadqiqotlar, sharq tillari, arxeologiya, numizmatika, tarix, manbalar, arxiv.

Научная школа российского востоковедения и вопросы истории Средней Азии

Аннотация. Научное изучение Средней Азии имеет свои глубокие корни в востоковедческой науке. Разветвленная система научных и образовательных учреждений, богатейшие собрания восточных рукописей, книг, предметов материальной культуры послужили для исследований ученых-востоковедов достаточно представительной источниковой базой. Одним из таких представителей российского востоковедения, своими трудами и общественно-научной деятельностью внесший определенную лепту в историю изучения науки и культуры народов Средней Азии, в частности, Узбекистана, являлся Петр Иванович Лерх. Он занимался изучением языков, наречий и говоров различных народов; увлекался доисторической археологией и глубоко изучал восточную нумизматику. В статье использован большой круг источников архивных научных учреждений РАН, в частности, материалы личного фонда П.И. Лерха из научного архива Института Восточных языков в Санкт-Петербурге.

Ключевые слова: востоковедение, Средняя Азия, изучение, научное исследование, восточные языки, археология, нумизматика, история, источники, архив.

Scientific school of Russian oriental studies and issues of the history of Central Asia

Abstract. The scientific study of Central Asia has its deep roots in Oriental science. An extensive system of scientific and educational institutions, the richest collections of oriental manuscripts, books, objects of material culture served as a fairly representative source base for the research of oriental scientists. One of these representatives of Russian oriental studies, who made a certain contribution to the history of the study of science and culture of the peoples of Central Asia, in particular Uzbekistan, with his works and social and scientific activities, was Petr Ivanovich Lerkh. He was engaged in the study of languages, dialects and dialects of various peoples; was fond of prehistoric archeology and deeply studied oriental numismatics. The article uses a wide range of sources from archival scientific institutions of the Russian Academy of Sciences, in particular, materials from the personal fund of P.I. Lerkh from the scientific archive of the Institute of Oriental Languages in St. Petersburg.

Key words: oriental studies, Central Asia, study, scientific research, oriental languages, archeology, numismatics, history, sources, archive.

XIX asrning ikkinchi yarmida O‘rta Osiyo Rossiya imperiyasi harbiy qo‘shinlari tomonidan bosib olingach, bu yerga rus sharqshunos-olimlari kelib, ko‘plab tadqiqot ishlarini olib bordilar. Shunday murakkab va og‘ir sharoitda ham tarixchilar, sharqshunoslar, arxeologlar o‘z fikr va mulohazalarini erkin bayon etishga harakat qilganlar, ilmiy tadqiqotlar yaratganlar. Ammo, mustamlaka siyosatmandlari xalq ommasining milliy ongini o‘stirish maqsadini ko‘zlamagan bo‘lsada, ilm-fan uchun xizmat qiluvchilar bor edi. Ularning faoliyatlari ham mavjud sharoitga nisbatan qiyin kechgan, albatta. Sababi, Rossiya hukumati amaldorlari omma o‘rtasida tarixiy bilimlarni targ‘ibot

qilish, ular diqqatini O'rta Osiyo qadimgi xalqlari tarixi va madaniyatini o'rganishga tortishdan ancha yiroq edi. Binobarin, Rossiya olib borayotgan faol mustamlakachilik siyosati Sharq hududlarini egallab borish yangi mustamlakalarni nafaqat boshqarish, balki ularni iqtisodiy va harbiy strategik jihatdan egallash zarurligi muammosini keltirib chiqardi. O'rta Osiyoning yangi-yangi hududlarida Rossiya hukmronligining o'rnatilishi, ularning umumrossiya iqtisodiy taraqqiyot yo'liga qo'shib yuborilishi tufayli turmushning o'zi ilmiy tadqiqotlar o'tkazish zarurligini taqozo qilar edi. O'rta Osiyoning umuman o'rganilmaganligi mustamlaka ma'muriyatining maqsadlarini ro'yobga chiqarishda halaqit berar edi. Ilmiy tadqiqot ishlarining ma'lum bir qismi, o'zlarining ko'p asrlik tarixiga, o'z urf-odatlari, xususiyatlar, turmush tarziga ega bo'lgan ko'p sonli O'rta Osiyo xalqlari ommasini yanada ezish tizimini kuchaytirishga yordam berishi ko'zda tutilar edi. Tabiiy boyliklari, madaniy merosi g'oyat boy bo'lgan va kam tekshirilgan bu hudud rus tadqiqotchi-olimlarining taraqqiyparvar qismini juda qiziqtirardi.

Sharqshunos-olimlar tomonidan yaratilgan kitoblar sahifalarida ko'p asrlik qatlamlar ostida ko'milgan sivilizatsiyalar va o'lik tillar tirilar, qadimgi qo'lyozma asarlar tilga kirar edi. Sitqidildan ishlayotgan olimlarning Sharq mamlakatlarini o'rganish natijasida orttirilgan bilimlardan sinfiy nayranglar maqsadida imkon darajasida keng foydalanish – kolonial siyosatning asosini tashkil qilgan. G'arbning ham, Rossiyaning ham ilmiy sharqshunosligining eng yaxshi namoyandalari ilm-fanga astoydil va beg'araz xizmat qilgan, ularning Sharq sivilizatsiyalari yutuqlariga bo'lgan qiziqishi kundan-kunga ortib borgan, bu esa, o'z navbatida, Osiyoning tarixi va madaniyatini butun dunyoga yoyilishiga xizmat qilgan.

Ilmiy sharqshunoslikning bu davrdagi rivojlanishiga mutaxassislarning yetishmovchiligi, mavzularni aniqlashdagi tortishuvlar, va, eng muhimi, Sharq tillarini o'qitishning mavjud bo'lgan tizimining kamchiliklari to'sqinlik qilar edi. Bu jarayonni to'g'ri yo'lga qo'yish uchun oliy o'quv yurtlarida sharqshunos kadrlar tizimini tayyorlash masalasiga chuqur e'tibor berilishi lozim edi. Bu esa, aynan XIX asrning boshlarida, universitetlarda sharqshunoslik bo'yicha o'quv fanlarni kiritilganligi bilan yaxshilana boshlandi. Aynan shu vaqtda universitetlarda sharqshunoslik bo'limlari, Sharq tillari kafedralari, Fanlar Akademiyasining Osiyo muzeyi (Азиатский музей), Sharq tillari Lazarev instituti, Rossiya tashqi ishlar Vazirligi Osiyo departamentining O'quv bo'limi tashkil topdi. Shunday qilib, turli ilmiy sharqshunoslik mutaxassisliklariga ega bo'lgan kadrlar tayyorlanishini nazarda tutadigan ma'lum bir tizim shakllantirildi, sharqshunoslikning o'quv va ilmiy markazlari ta'sis etildi.

Rossiya ilmiy sharqshunoslik maktabi uchta asosiy manbadan shakllangan:

1. Amaliy sharqshunoslik. U birinchi navbatda tashqi siyosat va savdo-sotiq ehtiyojlarini qondirishi kerak edi. Uning asosiy va muhim jihati – Osiyo, shu jumladan, O'rta Osiyo mamlakatlarida missionerlik faoliyatini yo'lga qo'yish;

2. Rossiya imperiyasi tarkibiga kirgan sharq xalqlarining an'anaviy maktablari. Shu jumladan, mahalliy-diniy o'quv muassasalari. Bu yerda ham rus, ham boshqa chegaradosh mamlakatlarining tarixi va madaniyati o'rganilgan;

3. G'arb sharqshunosligi. Rossiyada ilmiy izlanishlar olib borish uchun Yevropa sharqshunos-olimlarini taklif etish va Yevropa markazlarida chop etilgan sharqshunos-tadqiqotchilarning asarlarini rus tiliga tarjima qilish.

Ilmiy sharqshunoslikning asosiy yo'nalishlari bo'lib filologiya (qadimgi tillarni o'rganishga qaratilgan), matnshunoslik, qadimgi va o'rta asrlar tarixi, falsafa, dinshunoslik hisoblangan. Olimlar tarixiy, falsafiy, diniy, huquqiy, badiiy yodgorliklarning tadqiqi va ularning tarjimasi bilan shug'ullanganligi tufayli, sharqshunoslik ma'lum darajada qator gumanitar fanlarni ichiga oladigan kompleks fan sifatida shakllandi va faoliyat olib bordi.

O'rta Osiyoni ilmiy o'rganish rus fanida chuqur ildizlarga ega. Sharqshunoslik ilmiy va ta'lim muassasalarining keng tizimi, eng boy sharq qo'lyozmalari, kitoblari, moddiy madaniyati ob'ektlari sharqshunos olimlarning tadqiqotlari uchun manba bo'lib xizmat qildi. Olimlarning Sharq sivilizatsiyasi yutuqlariga chuqur qiziqishi boshqa mamlakatlar xalqlarini Markaziy Osiyo madaniyati va tarixi bilan yaqindan tanishtirishda muayyan o'rin tutdi.

Ilmiy sharqshunoslik Rossiya imperiyasining tashqi va ichki siyosati maqsadlarining yechimi uchun tarixiy zaruriyat sifatida XVII-XVIII asrlar chegarasida paydo bo'ldi. Ko'p yillar davomida Sharq xalqlari tili, adabiyoti, yodgorliklari, madaniyati jadal ravishda o'rganib kelindi, uning rivojlanishining jihatlari turli yo'nalishlarda - sharq tillari bilimdonlarini tayyorlash, sharqshunoslik markazlarini tashkil etish, sharq asarlari va qo'lyozmalarini yig'ish, maxsus ilmiy safar va

ekspeditsiyalar uyushtirish, sharq noyob asarlarini yig‘ish, sharq mavzusiga oid ilmiy asarlar yaratish ta’qiq qilindi. Chunki – “Osiyo insoniyat tarbiyasining asosiy manbai” bo‘lib, “uning o‘rganilishi ilm-fanni kengaytiradi va boyitadi” [1, 27,32]. Bu ishda ilm-fanga sodiq sharqshunos-olimlar sharqning qadimgi madaniyati yodgorliklarini keng ommaga tanishtirib, ularni ilmiy muomalaga kiritganlar hamda sharqning orqada qolganligi haqida qotgan aqidalarni buzganlar.

Rus ilmiy sharqshunosligining eng ilg‘or namoyandalari ilm-fanga fidokorona xizmat qilib, sharq sivilizatsiyasining yutuqlariga qiziqishlarini orttirib, o‘z mamlakatlari xalqlariga O‘rta Osiyo tarixi va madaniyatini tanishtirish uchun astoydil harakat qilganlar. Shunday sharqshunos-olimlardan biri butun hayotini ilm-fanga bag‘ishlagan va faqat ilm-fan uchun yashagan Petr Ivanovich Lerx bo‘lgan [2, 66].

Lerx Petr Ivanovich dastlabki ta'limni Peterburgdagi Petropavlovsk maktabida olib, 1850 yilda falsafa fakultetining sharq yo‘nalishini tugatdi. O'rta maktabdayoq Lerxning ilmiy tadqiqotlarga katta qiziqishi namoyon bo‘ldi. Talabalik davrida u bibliografik sharhlarni yozishni o‘rgangan. O‘qishni tugatgach, Fanlar akademiyasida ish yurituvchi (protokolist), keyinchalik, 1873 yilda u Arxeologiya komissiyasida kotiblik lavozimida ishladi va, nihoyat, 1877 yilda Sankt-Peterburg universiteti kutubxonachisi bo‘ldi. Lerx kamtarona hayot kechirib, butun vaqti va barcha imkoniyatlarini ilmiy izlanishlarga bag'ishladi.

Uning sharqshunoslik sohasidagi ilk asari 1851 yil fevral oyida chop etilgan “Fors she’riyati osmonida yetti yulduz” («Семизвездие на небе персидской поэзии») ocherklarida fors she’riyatining rivojlanishi haqida umumiy ma’lumotlar keltirilgan.

Rus tarixchisi A.A. Kunikning tarixiy etnografiya yo’nalishida eron xalqlarining tarixi, jumladan, tilshunosligi masalalariga bag‘ishlangan asaridan ta’sirlanib, Lerx kurd qabilasini uning tili, tarixi va turmush tarzi nuqtai nazaridan o'rganishni boshladi. Shu maqsadda Lerx Roslavl shahrida bir necha kurd asirlarining borligini aniqlab, deyarli uch oy vaqtini ular bilan o‘tkazib, kurd tili bo‘yicha o‘zining ilmiy va amaliy tajribasini orttirdi. Natijada 1856 yilda "Eron kurdlari va ularning ajdodlari bo‘lmish shimoliy xaldeylar haqida tadqiqot" ishining birinchi, 1857 yilda esa ikkinchi va uchinchi qismlari nashr etildi. Keyinchalik u kurd tilining grammatikasini tuzdi va Fanlar Akademiyasi Axborotnoma (Byulleten)larida kurd tilshunosligi bo‘yicha uchta fikr-mulohazalarini bayon etdi (XIV va XVI jildlar).

Aynan shu sohada Lerx o'sha paytda Rossiyada ham, xorijda ham hali hech kim ega bo'lmagan juda keng va aniq ma'lumotlarni qo‘lga kiritdi va ilmiy jamiyatga chinakam ilmiy tadqiqotni taqdim etdi.

Petr Ivanovichning ilmiy qiziqishlari doirasi juda keng bo‘lgan. U kurd tilini o‘rganganidek, turli xalqlarning tillari va shevalarini o‘rgangan; qadimgi davr arxeologiyasi bilan qiziqishi natijasida qator maqolalar paydo bo‘lgan; sharq numizmatikasiga bo‘lgan ishtiyoqining natijasi sifatida ham ilmiy ishni nashr ettirgan. Ushbu ro‘yxatni davom ettirish mumkin. Shu bilan birga uning ilmiy izlanishlarining geografiyasi ham juda keng qamrovli bo’lgan: Rossiyaning chekka guberniyalaridan boshlab yangi qo‘shib olingan chekka hududlargacha. Bu haqda arxivlarda saqlanayotgan P.I. Lerxning arxeologiya, tilshunoslik, tangashunoslik, etnografiyaga bag‘ishlangan materiallar dalolat beradi. Jumladan, “1865 yilda sotib olingan antiqa buyumlar ro‘yxatini o‘z ichiga olgan Lerxning uchta yozma kitobchasi” [3]; O‘rta Osiyo xalqlari tarixi, falsafasi, etnografiyasiga oid qisqa qoralama yozuvlar va maqolalar; Lerxning Turkistondagi safari haqidagi kundalik daftarlari [4]; yo‘llar, qal’alar chizmalari, masjid va qabrtoshlardagi yozuvlar (arab va fors tilidan rus tiliga o‘girilgan qo‘lyozma yozuvlari bilan) [5]; O‘rta Osiyoning turli hududlarining qo‘ldan chizilgan xaritalari, jumladan, Buxoroning rangli xaritasi [6]; 1842 yilda Buxoroda amir buyrug‘i bilan qatl etilgan ingliz sayyohi ofitser Conollyning ikkita kichik ibodat kitobi [7] va b.

Sharqshunos-olim doimiy ravishda imkoniyat topib, o‘zining bilimlarini boyitish va rivojlantirishga harakat qilar edi. Bu haqda Orol flotiliyasining boshlig‘i Orenburg va Samara viloyatlari general-gubernatori devonxonasiga yozgan xatida ma’lumot uchratish mumkin. Unda u o‘sha vaqtda “Buxoro va Xiva xonliklaridagi missiyalar a’zosi bo‘lmish Lerxga kitoblarni yetkazish”ni so‘raydi [8].

P.I. Lerxning Buxoro va Xivaga qilgan safarlari uning ilmiy faoliyati chegaralarini kengaytirdi. Shu davrdan boshlab olimning ilmiy izlanishlari doirasiga O‘rta Osiyo mamlakatlari va xalqlari tarixi, sharq tangashunosligi hamda antiqa buyumlarni o‘rganish qo‘shildi. Fanning aynan shu sohalari bo‘yicha uning tadqiqotlari olimning chuqur bilimi va aniq tahlili bilan kuzatilar edi. O‘zining 1858-1859 yillar davomida u N. P. Ignatyevning Xiva va Buxorodagi harbiy-diplomatik missiyasida ilmiy tadqiqot maqsadida qatnashgan bo‘lib, safardan Osiyo muzeyi uchun 30tadan ortiq Sharq

qo‘lyozmalarini olib keldi. Ularning ichida XIII asrga oid arab olimi Yoqutning tarixiy-geografik lug‘atiga asos bo‘lib xizmat qilgan Marv olimi Abu Sayid Abd-al-Kerim al-Somoniyning “Kitab al-ansab” qo‘lyozmasi ham bor edi. Buxorodan Shebangaroyining “Madjma al-ansab” noyob asarini va Hofiz-i Tanishning “Abdullanoma” asarining qo‘lyozmasini olib chiqdi.

1867 yilda Fanlar Akademiyasi tomonidan sharq va g‘arb yozuvchilari hikoyalarida tilga olingan Sirdaryo bo‘yida joylashgan Turkiston o‘lkasining eng qadimgi shaharlaridan biri Yangikent shahri qoldiqlarini o‘rganib kelish topshirig‘i berildi. Arxiv fondlarida 33 betdan iborat “Sirdaryo bo‘yicha joylashgan qadimgi shahar qoldiqlarini tadqiq etish uchun titular maslahatchi Lerxni xizmat safariga jo‘natish haqida” (“О командировании титулярного советника Лерха для расследования развалин древнего города на Сыр-Дарье”)gi yig‘ma jildda keltirilgan ma’lumotlarga ko‘ra u (Lerx) “1858 yilda Buxoro va Xivaga amalga oshirgan safari davridan boshlab ushbu hududning eng yaxshi bilimdoni sifatida” tilga olingan [9]. Olimdan batafsil ma’lumotlar, chizmalar, tasvirlarni jamlash hamda kundalik daftarini olib borish qat’iyan talab qilindi [10]. Ushbu ishni P.I. Lerx mohirlik bilan bajardi [5]. Nafaqat Yangikent, balki Turkistonning O‘tror, Sayram kabi qadimgi shaharlarini ham ilmiy kuzatib keldi [11].

Qadimgi noyob osori-atiqalarga qiziqishi juda baland bo‘lganligi tufayli P.I. Lerx Turkiston o‘lkasi arxeologik yodgorliklaridan topilgan bir necha sharq qo‘lyozmalari va tangalarni o‘rgandi va ularni keyinchalik Osiyo muzeyi, Imperator Ermitaji va Arxeologik jamiyatiga topshirdi [12, 222-223]. Jumladan, arxiv fondlarida 3 m. uzunligidagi Buxoro amirining turli davlat lavozimlariga tayinlash to‘g‘risidagi yorliq (forscha qo‘lyozma); 2,5 uzunligidagi vaqf yorliqlari (eski o‘zbek yozuvidagi turkiy qo‘lyozma); Buxorxudot davridagi noma’lum muallifning Buxoro tarixiga oid asaridan parchalar (forscha qo‘lyozma); Jo‘qi-san-qal’a asos solinishining tarixiga oid o‘zbekcha qo‘lyozma; masjid yoki madrasalar devorlaridagi arab yozuvlarining fotosuratlari; 77 sm uzunligidagi yaxshi saqlanmagan, ammo qayta tiklangan Abu Muslim harakati tarixiga doir arabcha qo‘lyozma haqidagi ma’lumotlar saqlangan[13].

P.I. Lerx tarixdan oldingi arxeologiya masalalariga qiziqib, Arxeologik Ilmiy jamiyatining ishlarida faol ishtirok etib, 1860 yilda jamiyatning a'zosi etib saylandi. U Jamiyat uchun bir nechta ahamiyatli tanqidiy maqolalarni taqdim etdi, bir nechta qiziqarli arxeologik topilmalarning tavsifini tuzib berdi. Ularning aksariyati «Arxeologiya jamiyati yangiliklari»ning V va VI jildlarida nashr etilgan. 1865 yilning yozida u Rossiya imperiyasining Olonesk, Vologda va Vyatka viloyatlari bo'ylab ilmiy natijalarga boy safarlarni amalga oshirdi; u to'plagan ma’lumotlar 1865 yilning «Arxeologik komissiya hisoboti»da joylashtirilgan va 1869 yilda Kopengagendagi antropologik va tarixiy xalqaro kongressda eshitildi. Bundan tashqari, Lerxning maqolalari va eslatmalari, shuningdek, Moskva arxeologiya jamiyatining organi bo‘lmish «Arxeologik xabarnoma» («Археологический вестник») (1867), «St. Petersburger Zeitung» (1860, №№ 132, 133), «Xalq ta’limi Vazirligi jurnali» («Журнал Министерства Народного Просвещения») (1868, 140-qism va 1869, 148-qism), «Fanlar akademiyasi xabarnomalari» («Бюллетень Академии наук») (1869, V), «Arxeologiya jamiyati xabarlari» («Известия Археологического общества») (VII va IX jildlari), «II Arxeologiya s’yezdi materiallari» («Труды II археологического съезда») hamda «Geografiya jamiyati xabarlari» («Известия географического общества») (tt. I, V, X) sahifalarida chop etilgan.

Arxeologik tadqiqotlar bilan bir qatorda P.I. Lerx filologik yo‘nalishda ham izlanishlar olib borgan. Sharqshunos olimning filologiyaga oid maqolalari Fanlar Akademiyasi “Byulleten” va “Eslatmalar”i hamda nemis tilidagi ilmiy jurnallarda chop etilgan. Shu bilan birga P.I. Lerx sharqshunos I.N.Berezinning ensiklopedik lug'ati tahririyati va «Russische Revue» jurnalida ham faoliyat yuritgan. Shu bilan birga sharqshunos-olim Imperator rus arxeologik jamiyati yig‘ilishlarida turli ilmiy mavzularda chiqishlar qilgan. Ushbu mavzular tilshunoslik, xronologiya, etnografiya, tangashunoslikka doir bo‘lib, O‘rta Osiyo xalqlari tarixi va madaniyati haqida batafsil ma’lumotlar berar edi.

Ilmiy izlanishlari natijalarining nafaqat rus, balki boshqa chet tillarda chop etilganligi P.I. Lerxning jahon ilmiy hududida boshqa olimlar bilan muloqot qilish imkoniyatini bergan. Shuningdek, P.I. Lerxning ilmiy merosida rus va fransuz tillarida chop etilgan, “1867 yildaTurkiston o‘lkasiga arxeologik safar” (“Археологическая поездка в Туркестанский край”) [14] asari saqlanganligi va Turkiston masjidlarining qabr toshlaridagi yozuvlarni o‘rganganligi haqida ma’lumotlar arxiv manbalarida saqlangan.

P.I. Lerx faoliyatiga doir ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan arxiv manbalarida 90 sahifadan iborat Narshaxiyning “Buxoro tarixi” (“История Бухары”) qo‘lyozmasining nusxasi [15], “O‘rta Osiyo

to‘plami. Qirg‘izlar va ularning cho‘llari. Buxoro, Xiva, Qo‘qon (tarix, geografiya, etnografiya)” [16] hamda O‘rta Osiyo tarixiga oid turli yozishmalar, matbuot sahifalaridan qirqib olingan maqolalar, alohida chop etilgan matnlar mavjud.

P.I. Lerx 1871 yilda sharqshunos A.L. Kun tomonidan yig‘ilgan va Turkiston general-gubernatori K.P.Kaufman tomonidan Peterburg Markaziy kutubxonasiga *(Публичная библиотека)* xadya etilgan 97ta sharq qo‘lyozmasini tavsiflab berdi [12, 222-223].

1870-yillarning boshlarida Lerx pahlaviy, zend, so‘g‘d tillarini o‘rganib, VII-VIII-asrlarda Buxoroda zarb qilingan tangalardagi sirli yozuvlarni ochib berdi. P.I. Lerx O‘rta Osiyo tangashunosligi, xususan, qadimgi tangalar va noyob buyumlar taqdiri masalasini sharqshunos V.V. Grigoryev bilan bo‘lgan yozishmalarida rivojlantirgan [17]. Yangi ilmiy yangiliklar haqida u 1876 yilda Sankt-Peterburgda o‘tkazilgan orientalistlarning III xalqaro s’yezdida ma’lumot berdi. Aynan shu s’yezdda P.I. Lerx o‘zining “Buxorxudotlar tangalari” (“Монеты бухархудатов”) nomli yirik asarini ilmiy jamoatchilikka tanishtirgan [18]. Afsuski, bu asar tugallanmay qoldi. Lerx s’yezddagi ko‘rgazmaning tashkil etilishiga katta xissa qo‘shdi. U “yuborilgan buyumlarni ro‘yxatga olib, joylashtirib, ularning saqlanishiga mas’uliyat bilan yondashgan. Xattoki, chet el mehmonlari uchun ko‘rgazma buyumlari haqida to‘liq ma’lumot ham bergan. S’yezddan keyin olim noyob buyumlarni o‘rganish va tadqiq qilishni davom etgan.

P.I. Lerxning hamkasblari uni “halol va olijanob mehnatkash” [19] deb tariflagan. Ko‘p yillar davomida u turli lavozimlarda ishlasa-da, o‘zining ilmiy bilimi doirasi hamda “ma’lumotlar boyligi va keng bilimdonligi bo‘yicha kurd tili yoki musulmon Sharq tarixi kafedrasini faxr bilan boshqarishi mumkin edi” [20]. Bandligiga qaramay, Movarounnahr tarixini tuzishga ham qo‘l urgan.

Sharqshunos olim P.I. Lerxning tarix fani va, umuman, sharqshunoslikning rivojlanishida, shuningdek, O‘rta Osiyo, xususan, O‘zbekiston tarixini o‘rganishda qo'shgan hissasi beqiyos va, uning hamkasblari bashorat qilganidek, avlodlari tomonidan olimning “nomi hamisha samimiy minnatdorlik bilan tilga olinadi” [20].

Adabiyotlar

1. Уваров С.С. Мысли о заведении в России Академии Азиатской. // «Вестник Европы». 1811. Ч.55, №1.
2. Тизенгаузен В., Веселовский Н. П.И. Лерх (некролог). // Журнал Министерства народного просвещения. СПб., 1884, ноябрь.
3. Архив ИВР РАН, Ф.36, оп.1, ед.хр.2, 22 л.
4. Архив ИВР РАН, Ф.36, оп.1, ед.хр.8, 94 л.
5. Архив ИВР РАН, Ф.36, оп.1, ед.хр.10, 16 л.
6. Архив ИВР РАН, Ф.36, оп.1, ед.хр.17, 40 карт и табл.
7. Архив ИВР РАН, Ф.36, оп.1, ед.хр.18. Там же, оп.1, ед.хр.18.
8. Архив ИВР РАН, Ф.36, оп.2, ед.хр.10, л.19.
9. НА ИИМК, Ф.1,1867, ед.хр. 278, лл.4-6.
10. НА ИИМК, Ф.1,1867, ед.хр. 278, л.1, 10-11.
11. НА ИИМК, Ф.1, 1867, ед.хр. 278, л.16.
12. Бартольд В.В. История изучения Востока в Европе и в России. – СПб., 1911, с.222-223.
13. Архив ИВР РАН, Ф.36. оп.1, ед.хр.16, 8 л.
14. Лерх П.И. Археологическая поездка в Туркестанский край в 1867 году. СПб., 1870.
15. Архив ИВР РАН, Ф.36. оп.1, ед.хр.14.
16. Архив ИВР РАН, Ф.36. оп.1, ед.хр.12, 62 л.
17. Архив ИВР РАН, Ф.36. оп.1, ед.хр.11, 23 л.
18. Лерх П.И. Монеты бухар-худатов. // Труды Восточного отделения Русского Археологического общества. Т.XVIII, СПб., 1876.
19. Гаркави А.Я. Памяти П. И. Лерха. // Записки Императорского русского археологического общества. Т.I. Новая серия. СПб., 1886, с.CVII.
20. Лерх П.И. Маверанагр или Заречье. // Русский энциклопедический словарь, издаваемый И.Н. Березиным. Отдел III. Т.II (X). СПб.,1875, с. 577-583.